

AXBOROT QUROLIGA QARSHI KUCH QUDRAT MANBAI BU - MA’NAVIYATDIR

A.S. OTOKULOV, S.R. ALAYEV, SH.T. MAXMUDOV

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, Ofitserlar malakasini oshirish, zaxira va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma’naviyat haqida, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati, ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflari, jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlar, bag‘rikenglik, halol-pok, mehr-oqibatli, el-yurtning g‘amu tashvishi bilan yashashga undovchi, insonning vijdonini uyg‘otadigan ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, ma’naviyat, poklik, iroda, iymon, e’tiqod, vijdon, dunyoqarash, mafkura, g‘oya, fikr, tasavvur, idrok, psixologiya.

Аннотация: это статья посвящена духовности, ее значению, роли и значению в нашей жизни, множеству определений, выраженных научным, философским, литературным или простым языком, идеологическим, идеологическим, просветительским, культурным, религиозным и моральным взглядам на жизнь общества, толерантности, честности, чистоте, доброте, заботе о родном крае. освещается информация, побуждающая жить, пробуждающая совесть человека.

Ключевые слова: информация, духовность, чистота, воля, вера, совесть, мировоззрение, идеология, идея, мысль, воображение, восприятие, психология.

Annotation: this article covers spirituality, its meaning, place and importance in our lives, many definitions expressed in scientific, philosophical, literary or ordinary language, ideological, ideological, educational, cultural, religious and moral views in the life of society, tolerance, honest-pure, affectionate, encouraging to live with the anxiety of grief of el-yurt, evoking the conscience of a person.

Keywords: information, spirituality, purity, will, faith, belief, conscience, worldview, ideology, idea, thought, imagination, perception, psychology.

Bugungi shiddatli axborot davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi,



erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Tarbiya bilan bugun shug‘ullanmasak, ertaga kech bo‘ladi. Yoshlar ma’naviyati bilan bog‘lik, ayrim muammolar jahonning ko‘plab mintaqalarida hamon saqlanib qolmoqda [1].

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir [2].

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi - ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iktisodiyotga x, amda ajdodlarimizning boy merosi, millim va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz [3].

Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan ma’naviyat degan tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda **har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz.** Mening nazarimda, «Ma’naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi.

Shuning uchun **ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’nodagi «Ma’naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.** [4]

Ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi turli ma’nolarda qo‘llaniladi.

Diniy ma’noda “Ruhan poklanish” - gunohdan tozalanish, Ollohga yaqinlashish va ruhiy yangilanish jarayoni va ichki xotirjamlikka erishish uchun bo‘lgan insonning ruhiy sayohati. Bu turli dinlarda turlicha talqin etiladi, ammo

umumiy ma’no shuki, inson o‘zining xatolarini tan olib, gunohlardan afv so‘raydi, Ollohga bo‘lgan muhabbatini va ishonchini mustahkamlaydi.

Psixologik ma’noda o‘zini kashf etish, o‘zining xatolarini qabul qilish, o‘zgarishga ochiqlik, ruhiy hotirjamlik va baxtni topish jarayonini anglatishi mumkin.

Badiiy ma’noda turli ijodkorlik shakllarida - she’riyatda, musiqada, tasviriy san’atda - ruhiy hayajonlarni ifodalashga, ichki dunyoni ochishga xizmat qilishi mumkin.

Insonning qalban ulg‘ayishi ruhiy va hissiy jihatdan rivojlanishi, atrofidagilarga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishi, hayotga bo‘lgan qarashlarini chuqurlashtirish, shuningdek tajriba orttirish jarayonidir.

O‘zining kuchli va zaif tomonlarini halol tan olish, xatolarni qabul qilish, o‘zini sevish va qadrlash, atrofdagi insonlarning his-tuyg‘ularini tushunishi, ularning muammolariga hamdardlik bilan yondashishi, ularga yordam berishga tayyorligini o‘zida mujassamlashadi, shuningdek, o‘z his - tuyg‘ularini boshqarish, g‘azab, xavotir va boshqa salbiy hissiyotlarga berilmaslik, o‘z harakatlari va so‘zlariga shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish bilan belgilanadi.

Qoyil qolish, hayotning go‘zalligini ko‘rish, har bir kunni qadrlash, yangi narsalarni o‘rganish bilan hayotdan zavqlanadi, samimiyy munosabatlarga intilish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, hayot tajribalari va bilimlaridan foydalanib, to‘g‘ri qaror qabul qilish, yangi muhitga moslashish, hayotning qiyinchiliklariga bardosh bera olish nazarda tutiladi.

Insonning ichki dunyosi - dunyoqarashi, mafkurasi, g‘oyasi, fikri, tushunchasi, tasavvuri, xotirasi, xayoli, irodasi, idroki, iymoni, e’tiqodi, ahloq va psixologiyasi kabilalar **bu uning** ma’naviyatidir.

Inson irodasining baquvvatliligi – inson irodasiga xos ma’naviy xususiyatlardan biri:

muayyan maqsadni yuzaga chiqarish uchun kishida bo‘lgan matonat va qat’iyat;

insonning ma’lum maqsad yo‘lidagi o‘z xatti-harakatini, ixtiyor va xohishini ongli ravishda yo‘naltirib turishi, shu yo‘ldagi qat’iyati, mavjud to‘siqlarni yenga olishga qodir bo‘lgan ruhiy-ma’naviy salohiyatini ifoda etadigan tushunchadir.

Inson ichki dunyosi va **irodasining baquvvatliligi** uning ma’naviyatliligidan darak beradi. Masalan, xalqimiz o‘z boshidan kechirgan mustamlaka davrini ko‘z

oldimizga keltiraylik. Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma’nodagi qora kunlari bo‘lmish o‘sha zamonda bir paytlar o‘zining qudratli davlatchiligi, buyuk farzandlari, yuksak ilmu madaniyati, obod shahar va qishloqlari bilan dunyoni hayratda qoldirgan yurtimiz va xalqimiz qanday og‘ir qiyinchiliklarga duchor bo‘lganini yaxshi bilamiz. Biroq ana shunday dahshatli davrlarda ham, zulm va istibdodga qaramasdan, xalqimizdagi **irodasining baquvvatliliqi** bois o‘zligini yo‘qotmadi.

Tili va iymon-e’tiqodini saqlab qoldi. Nohaqlik va zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan shunday zamonlarda ham yurtimizdan millat va xalq qayg‘usi bilan yashagan vatanparvar insonlar yetishib chiqdi. Shu tariqa, el - yurtimizning asrlar sinovida yanada kuchayib, toblanib borgan mustahkam irodasi nafaqat qadimiylar ma’naviyatimiz, balki milliy o‘zligimizni saqlab qolishga zamin bo‘ldi.

Yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o‘ziga xos milliy ma’naviyati orqali rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu bois, “Yapon mo‘jizasi” yoki “Koreys mo‘jizasi” haqida gap ketganda, mutaxassislar birinchi galda “Yapon xarakteri”, “Koreys tabiat” degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o‘rinda, avvalo mazkur xalqlarga mansub ma’naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya’ni, bu xalqlarning ichki dunyosi, irodasi ma’naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan. Globallashuv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, hozirgi axborot xurujlarida u mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam yaxshi anglaydi. Mana shunday vaziyatda inson o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, turli axborot xurullariga, ularning xilma-xil ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol.

Inson o‘z hayoti davomida turli muammolarga, hatto keskin vaziyatlarga duch keladi. Bunda, birinchi navbatda, o‘z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma’naviy olami baquvvat bo‘lgan insongina qiyin holatdan chiqib keta oladi. Ma’naviy boylik ana shunday paytda kishiga kuch va madad beradi. Shu ma’noda, insonning ma’naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham mustahkamlanib, toblanib boradi deyish mumkin. **irodasining baquvvatliliqi** bois inson o‘ziga ishonadi, har qanday murakkab vazifani zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday insonlar boshingizga biror-bir tashvish



yoki muammo tushsa, loqayd qarab turolmaydi. Lekin birovning hayotiga, yonatrofda sodir bo‘layotgan voqe - hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan kishilardan qo‘rqish kerak. Chunki ularda na imon, na iroda bo‘ladi. Ular hatto o‘z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisol begonadek qaraydi.

Mashhur faylasuflardan biri bu haqda shunday deydi: “Dushmanlardan qo‘rqma, nari borsa, seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma, ular nari borsa, xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq, ular seni o‘ldirmaydi, sotmaydi ham. Lekin ularning loqaydligi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi” [5].

Vijdon – insonga xos yuksak ma’naviy fazilat, kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissini anglatuvchi tushuncha. Vijdonli inson har bir qilgan ishi, odamlar bilan bo‘lgan muloqoti, faoliyati va fikrlarini sarhisob qiladi. Nohaqlikka, adolatsizlikka murosasizlik bilan qarshilik ko‘rsatadi. Vijdonning shakllanishida ijtimoiy muhit, oila va jamiyatdagi ta’lim-tarbiya, atrofdagi kishilarning madaniyati, axloqi-odobi, dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yuksak ma’naviy-axloqiy fazilat shaxsni ezgu maqsad va amallarga undab, o‘z faoliyatiga xolisona, to‘g‘ri baho berishiga xizmat qiladi.

Tajribada aslida vijdonsiz kimsaning voyaga yetib, o‘qimishli, katta odam bo‘lib yetishganidan keyin vijdonli bo‘lib qolganini uchratish qiyin. Vijdon insonning bilim darajasi, moddiy ahvoli, ijtimoiy mavqeい bilan belgilanmaydi, u yuksak ma’naviylik, komillik va tarbiya mahsulidir. Vijdon ma’naviyatdagi ta’sir doirasi g‘oyat keng tushunchalardan biri. Agar uyat hissi insonning tashqi muhit, jamiyatga bog‘liqligini ifodalasa, vijdon uning botiniy olamini, qalb tug‘yoni, ichki ruhiy iztirobini namoyon etadi. Ba’zan jamiyat talablari bilan vijdon o‘rtasida ixtiloflar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda jamiyat talablarining o‘tkinchilik xususiyati, ma’lum ma’noda eskirgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Zero, vijdon ko‘zga ko‘rinmas, lekin ta’siri va ahamiyati jihatidan ulkan ma’naviy-axloqiy hodisadir. Ba’zi hollarda, vijdon tushunchasi o‘rnida iymon iborasi qo‘llanadi. Iymon aslida diniy tushuncha bo‘lsada, hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida qo‘llanadi. Masalan, «Iymonli odam» deganda, uning nafaqat diniy e’tiqodi, balki, avvalo, vijdonli, halol, rostgo‘y inson ekani nazarda tutiladi. Shu ma’noda, vijdon va iymonni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan egizak tushunchalar deyish mumkin.

Diniy e’tiqodga munosabat “Vijdon erkinligi” deb yuritilishi ham bu ikki tushunchaning o’zaro mushtarakligidan dalolat beradi. Ba’zi adabiyotlarda vijdon tushunchasining “Sub’ektiv” hodisa sifatida talqin etilishi hamdaadolat, burch, nomus singari tushunchalarning unga nisbatan ustunligini asoslashga urinishlarni uchratish mumkin. Vaholanki, vijdonsiz odamning adolatparvar, sadoqatli, ornomusli inson bo’lishi amrimahol. Vijdon eng avvalo, o’zgalarga nisbatan burch va mas’uliyatni teran his etishni taqozo etadi [6].

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashgan axborot davrda ma’naviyat muntazam harakatdagi uzlucksiz jarayon hisoblanadi, rivojlanish davom etar ekan, uning shiddatli kechishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo’yiladigan talablar ham muttasil yangi-yangi paydo bo’laveradi.

Davlatimiz rivojlanishda yangi-yangi cho‘qqilar sari ildam borar ekan, biz yashayotgan globallashuv davr tezlashib, oldimizda yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo’laveradi, tabiiyki, ma’naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, millatimizning sog’lom kelajagini har qanday axborot xurujlaridan himoyalanishni, davr o’zgarishi bilan ularning ko‘rinishi va shakli o’zgarishiga qaramasdan ma’naviyatimizni saqlash va asrab avaylashga qodir bo’lishi kerakligini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] Sh. Mirziyoev., “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” (O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy majlisiga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar). “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent – 2023. 46-b.

[2] Sh. Mirziyoev., Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiton” nashriyot uyi Toshkent – 2017. 27-b.

[3] Sh. Mirziyoev., Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent – 2021. 4- b.


[4] I. Karimov “Yuksak ma’nviyat-yengilmas kuch” Toshkent 2008. 15 b.

[5] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat



asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 235-b.

[6] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 111-b.



Research Science and Innovation House

